

YENGIL SANOAT KORXONALARI MARKETING FAOLIYATIDA “KLASTER” NAZARIYASI VA UNDAN FOYDALANISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

*Ravshanbekov Oybek Rustambek o'g'li
Mustaqil tadqiqotchi*

Integratsiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida yangi xo'jalik yuritish tizimini shakllantirish yo'li hisoblanib, o'zaro pirovard mahsulot ishlab chiqaradigan va geografik yaqin bo'lgan korxona va tashkilotlarni o'z ichiga olgan **“klaster”lar yaratishdir**. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish - innavatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat.

1980 yillardan keyin “klaster nazariyasi”ning rivojlanishida 3 ta muhim (Amerika, Britaniya, Skandinaviya va b.) ilmiy maktablar yutuqlarini ko'rish mumkin.

Amerika olimlari: M.Porter “raqobat ustunligi nazariyasi”¹, M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorentsenlar “mintaqaviy klasterlar kontseptsiyasi”², A.Marshall “Sanoat hududlari nazariyasi”³, P.Bekatin “Italyan sanoat okruglari nazariyalari”⁴, M.Storper “Ideal” hududiy klaster” nazariyalarini yaratgan. Qo'shimcha qiymat va “klasterlar zanjiri uyg'unligi, mintaqalarni o'qitish kontseptsiyalari” ham shu guruhdan o'rin olgan. Aynan shu olimlar nazariyalarida klasterlar - ishlab chiqaruvchilar raqobat ustunligini oshirishda yuqori samarali bo'lib, ularning hududdagi ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizimi ekanligi ta'kidlanadi.

Britaniya nazariyotchilarining (J.Danning, K.Brimen, SHmit, J.Hamfrilar) fikricha, “klaster”—o'zaro hamkorlikdagi institutlar tizimi sifatida iqtisodiyotning

¹Портер М. Международная конкуренция. - М.: Международные отношения, 1993. С. 51,

²Enright, M. (1996) “Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda”, in Staber, U., Schaefer, N. and Sharma, B., (Eds.) “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”: Walter de Gruyter, pp. 190- 213.

³Маршалл А. Принципы экономической науки, т. I – III. Пер. с англ. — М.: Издательская группа «Прогресс», 1993.

⁴П. Бегаттин - Becattini G. From Marshalls to the Italian «Industrial Districts»/ www.copetitivness.org. 2015

asosini belgilovchi institutsional nazariyalardir. Bu holatda “klaster”ning o'ziga “zamonaviy institut” sifatida qaralmoqda. Mazkur tizimda uning qatnashchilarining o'zaro munosabati turlicha rasmiy va norasmiy bo'lganidek, klasterlarning ham tashqi doirasi keng bo'ladi degan nazariya xisoblanadi.

Skandinaviya olimlari (B.O.Lundval, B.Yonson, B.Asxaym, A.Izaksonlar) – klasterning evolyutsion rivoji bir qator bosqichlardan o'tishi, ya'ni “tug'ilishidan tugagunicha” – bu shundan dalolat beradiki, evolyutsion nazariya imkoniyatidan foydalanish “klaster” nazariyasini bildiradi degan mulohazani ifodalashgan.

Davlat iqtisodiyoti klasterlarning kuchli jihatlariga tayanadi, chunki ularsiz eng rivojlangan iqtisodiyot ham o'rtamiyona natijalarga erishishi mumkin degan xulosalar mavjud. Klasterlarning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanadi:

- boshqa tarmoqlardan keladigan yangi ishlab chiqaruvchilar ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantiradi va yangi strategiyalarni ta'minlab, rivojlanish jarayonini tezlashtiradi;

- o'zaro erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste'molchi va mahsulot yetkazib beruvchilarning kanallari bo'yicha tez tarqaladi;

- “klaster” ichidagi o'zaro aloqalar raqobatda yangi imkoniyatlar paydo bo'lishiga olib keladi;

- inson kapitali, ilmiy g'oyalari rivojlanishi va ishlab chiqarishga joriy etilishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Klaster nazariyasining asoschisi, amerikalik marketolog olim Maykl Porter tomonidan 10 ta iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning 100 ta sanoat va boshqa tarmoqlarida tashkil etilgan klasterlar faoliyati o'rganilganda, qolgan tarmoqlarda, ya'ni klaster tizimidan tashqaridagilarga qaraganda mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish xaqi esa 30 foizgacha ko'pligi hamda ular joylashgan hududlar aholisining turmush darajasi ham ancha yuqoriligi aniqlangan.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSHda bu strategiya keng qo'llanilmoqda. AQSH sanoatining 50 % dan ortig'i klasterlarda foaliyat yuritmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ulushi YaIMning 60 % dan oshgan.

1-jadval

Jahon mamlakatlaridagi sanoat klasterlari soni⁵

Mamlakatlar nomi	Klasterlar soni
Buyuk Britaniya	168
Gollandiya	20
Germaniya	32
AQSH	380

⁵ Internet manbalari asosida yig'ilgan

Daniya	34
Frantsiya	96
Italiya	206
Frantsiya	9
Hindiston	106

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida klasterlar soni 2000 dan ziyodni tashkil etadi va jami band aholining 38 % iga to'g'ri keladi. Klasterlar soni Buyuk Britaniyada 168 ta, Gollandiyada – 20 ta, Germaniyada 32 ta, AQSHda 380 ta, Daniyada - 34 ta, Frantsiyada - 96 ta, Italiyada - 206 ta, Finlandiyada - 9 ta, Hindistonda - 106 ta (1-jadval). Daniya, Finlyandiya, SHvetsiya sanoatini klasterlar to'la egallagan. Masalan, Finlyandiya 2000 yildan buyon raqobatbardoshlikda dunyo reytingida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Bu mamlakat dunyo o'rmon resurslarining atigi 0,5 % ulushga ega bo'lib, yuqori unumdorligi bilan ajralib turuvchi klasterlar hisobiga yog'ochni qayta ishlash sanoatida dunyo eksportida 10 % ni, qog'oz eksportining 25 % ini ta'minlamoqda. Finlyandiya klaster strategiyalaridan samarali foydalanish evaziga telekommunikatsion bozorda mobil aloqa vositalari bo'yicha dunyo eksportining (2005-2010 yillar) 30 % ini va mobil telefonlarining 40 % ni yetkazib bergan.

Italiya sanoatining klasterlari hissasiga ish bilan band aholining 43 %, milliy eksport hajmining 30 % dan ortig'i to'g'ri kelmoqda. Klaster tuzilmalari Germaniyada kimyo va mashinasozlik sanoatida, Frantsiyada oziq-ovqat sanoati va kosmetika sanoatida muvaffaqiyatli ishlamoqda. Klaster tuzilmalari SHveytsariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiyada yengil sanoat, Germaniyada kimyo va mashinasozlik sanoatida, Frantsiyada oziq-ovqat sanoati va kosmetika sanoatida muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Klasterlar shakllanishi jarayoni Janubi-sharqiy Osiyo, Xitoyda, Singapurda, Yaponiyada va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda. Xitoyda 60 tadan ziyod klasterlar alohida hududlarda shakllantirilgan bo'lib, ulardagi ishchilarning soni 3,5 million ishchi kuchini band etgani holda, yillik tovar aylanishi 200 mlrd dollardan ziyodni tashkil etmoqda.

Klaster - tashabbuskorlari raqobatbardoshlikni oshirish vositasi ekanligi toboro ko'p mamlakatlar iqtisodiy va innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy jihati bo'lib qolmoqda. Keyingi 10 yilda 20 ta mamlakatda amalga oshirilgan 500 dan ortiq klaster tashabbuslari tahlili buni juda kuchli mavqeyga asoslanganini ko'rsatib bermoqda.

Masalan, Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvisiz bo'lar edi. Biroq 2003 yilda hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e'tibor qaratdi. Bu, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashga

taalluqli. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoatlar va ilmiy markazlar kuch-g'ayratini birlashtirishni ko'zda tutadi.

Klasterlashtirish raqobatbardoshlikni oshirish vositasi ekanligi, tobora dunyo hamjamiyatining diqqatini o'ziga tortmoqda va mamlakatlarning rivojlanish strategiyalarining asosiy jihati bo'lib qolmoqda. SHvetsiyaning qog'oz sanoatidagi raqobatbar-doshligi, Daniyaning agrobiznes va oziq-ovqat sanoatidagi yutuqlari klasterlashtirish strategiyalarini samarali innovatsion asosga qurilganligida deb hisoblanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адашев А. Ў. Корхоналарда инновацион ривожланишининг таркибий асослари //Научное знание современности. – 2017. – №. 4. – С. 8-12.
2. АУ Адашев, ХО Арслонов Мотивация персонала как функция менеджмента-Мировая наука, 2019
3. AA Urinboevich Directions for ensuring the sustainable development of industrial enterprises in the context of economic liberalization. International Engineering Journal For Researc-2020
4. Adashev, A. U., and A. M. Ismoilov. "The importance of organizational structure in small business management." *Экономика и социум* 2-1 (2021): 21-26.
5. Urinboevich, Adashev Azimjon. "Analysis of sustainable development of small business components of the republic of uzbekistan." *E-Conference Globe*. 2021.
6. Adashev, Azimjon Urinboevich, and Abdulkholik Mukhiddin Ugli Ismoilov. "The Role Of Small Business In The Management Of The Organized Structure." *The American Journal of Applied sciences* 3.04 (2021): 84-90.
7. AU Adashev Models of transition to market economy, their commonwealth and differences *Экономика и социум*, 2018
8. AU Adashev The content bases of the innovative development in companies *Высшая школа*, 2017
9. Adashev, A. U. "Financial management as a system and mechanism of finance management." *Экономика и социум* 3 (2020): 6-8.
10. AU Adashev Principles and laws of management *Экономика и социум*, 2019